



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI REKTORI**

---

100173, Toshkent sh., Kichik Halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy, Tel: (71) 230-12-91.  
e-mail: [uzdjtud@edu.uz](mailto:uzdjtud@edu.uz), [uzgumya@exat.uz](mailto:uzgumya@exat.uz).

V.A.Sadiyev

M.Ch.Chutpulatov

D.Sh.Xamdamov

**2-илова 3-банд. Ўрнатилган тартибда ижроси таъминлансан**

***Muddat: 17 Sentabr 2024***

**№11-16/1516**

**I.M.Tuxtasinov**

10 Sentabr 2024

Rektor





## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI



## YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



## O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI

**“Yilning eng faol talabasi”, “Yilning eng faol o‘quvchisi” va “Islohotlar bilimdoni” respublika tanlovlarini o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 36-sun qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Chora-tadbirlar dasturi”ning 2-bandi ijrosi yuzasidan iqtidorli talaba va o‘quvchilarning maqsadli faoliyatini tizimli tashkil etish hamda ularni yangi marralar sari yo‘naltirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Madaniyat vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va O‘zbekiston Badiy akademiyasi qaror qiladi:

## **1. Quyidagilar:**

“Yilning eng faol talabasi”, “Yilning eng faol o‘quvchisi” va “Islohotlar bilimdoni” respublika tanlovlari doimiy ravishda o‘tkazish bo‘yicha Tashkiliy qo‘mita tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

“Yilning eng faol talabasi”, “Yilning eng faol o‘quvchisi” va “Islohotlar bilimdoni” respublika tanlovlari (keyingi o‘rinlarda – ko‘rik-tanlov) o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejası (keyingi o‘rinlarda – chora-tadbirlar rejası) 2-ilovaga muvofiq;

“Yilning eng faol talabasi” respublika tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

“Yilning eng faol o‘quvchisi” respublika tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom 4-ilovaga muvofiq;

“Islohotlar bilimdoni” keng tarmoqli respublika ilmiy-ma’rifiy ko‘rik-tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

## **2. Tashkiliy qo‘mitaga:**

ko‘rik-tanlovnii ilovalardagi nizomlarga muvofiq barcha oliy va professional ta’lim muassasalarida yuqori saviyada tashkil etish;

chora-tadbirlar rejasida belgilangan tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish hamda monitoringini yuritish;

ko‘rik-tanlovnii Respublika bosqichi ishtirokchilarining shaffof vaadolatli baholashini ta’minalash maqsadida vazirlik va idoralarda faoliyat olib borayotgan (kamida bo‘lim boshlig‘i lavozimidagi) mas’ullarni hakamlar hay’ati tarkibida ishtirokini ta’minalash;

qoida tariqasida tanlov g‘oliblarini taqdirlash har yili 1-oktabr – “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” bayrami hamda 8-dekabr – “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni” umumxalq bayrami arafasida tashkil etilishini ta’minalash vazifalari yuklatilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari S.Buzrukxonov, Madaniyat vaziri birinchi o‘rinbosari A.Tadjixanov, Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari D.Kattaxanova, Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Sh.Turdikulova, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi o‘rinbosari F.Tashmuxamedov zimmalariga yuklatilsin.

Oliy ta'lif, fan va  
innovatsiyalar vaziri



K. Sharipov

Toshkent sh.,  
2024-yil "25" 04,

24-04-24-son

O'zbekiston Respublikasi  
Madaniyat vaziri



O. Nazarbekov

Toshkent sh.,  
2024-yil "25" 04,

04-04-24-son

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar  
ishlari agentligi direktori



A. Sa'dullayev

Toshkent sh.,  
2024-yil "25" 04,

04-04-24-son

O'zbekiston Badiiy akademiyasi  
raisi



A.Nuriddinov

Toshkent sh.,  
2024-yil "25" 04,

Q-Q-D3-D3-son

O'zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasi prezidenti



B. Yuldashev

Toshkent sh.,  
2024-yil "25" 04,

25-son

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
 vazirligi 2024-yil “25 iyul 27-8/8  
 Madaniyat vazirligining  
 2024-yil “25” iyul 01-17-15  
 Yoshlar ishlari agentligining  
 2024-yil “29” iyul 01-07/21  
 Fanlar akademiyasining  
 2024-yil “25” iyul 21/5,  
 O'zbekiston Badiiy akademiyasining  
 2024-yil “25” iyul 01-07-03-03  
 -son qaroriga 1-ilova

**“Yilning eng faol talabasi”, “Yilning eng faol o‘quvchisi”, va “Islohotlar  
 bilimdoni” respublika tanlovlarini o‘tkazish bo‘yicha  
 Tashkiliy qo‘mita tarkibi**

| Nº | F.I.SH  | Ish joyi va lavozimi  |
|----|---|---|
| 1. | Buzrukxonov<br>Sarvarxon<br>Munavarxonovich       | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari, <i>Tashkiliy qo‘mita raisi</i>   |
| 2. | Ahmedov Bahodir<br>Majidovich                     | Madaniyat vaziri o‘rinbosari, a’zo  |
| 3. | Turdikulova Shaxlo<br>Utkurovna                   | Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti, a’zo   |
| 4. | Kattaxanova<br>Dilnozaxon Sobir qizi              | Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari, a’zo  |
| 5. | Tashmuxamedov<br>Farxod Eminovich                 | O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi o‘rinbosari , a’zo   |
| 6. | Kasimov Nodir<br>Ulug‘ovich                       | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi boshqarma boshlig'i,<br>a’zo   |
| 7. | Abduqunduzova<br>Nazokat Usmonqulovna             | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining axborot siyosati<br>masalalari bo‘yicha maslahatchisi - matbuot kotibi  |
| 8. | Xudayberganov<br>Ravshanbek<br>Xudaybergan o‘g‘li | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va<br>o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi direktori,<br><i>Tashkiliy qo‘mita kotibi</i> |

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024-yil “25 iyul 279,9  
 Madaniyat vazirligining 2024-yil “25 iyul 01-17-15  
 Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil “29 iyul 01-07-21  
 Fanlar akademiyasining 2024-yil “25 iyul 215,  
 O'zbekiston Badiiy akademiyasining 2024-yil “25 iyul 0-0-Q3 03  
 -son qaroriga 2-ilova

**“Yilning eng faol talabasi”, “Yilning eng faol o‘quvchisi” va “Islohotlar bilimdoni” respublika tanlovlarini o‘tkazish bo‘yicha**  
**CHORA-TADBIRLAR REJASI**

| T/r | Chora-tadbirlar nomi   | Amalga oshirish mexanizmi   | Ijro muddati     | Mas’ul ijrochilar   |
|-----|--|---|------------------|---|
| 1.  | Manfaatdor vazirlik va idoralar bilan tasdiqlangan “Yilning eng faol talabasi”, “Yilning eng faol o‘quvchisi”, va “Islohotlar bilimdoni” respublika tanlovlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi qo‘shma qarorni tizimdagи tashkilotlar va muassasalarga yetkazish | 1. Har bir vazirlik va idora tomonidan qo‘shma qaror tizimdagи tashkilotlar va muassasalarga ijro uchun yuborish. | 2024-yil 30-iyun | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi |

|    |   |  |                                |   |
|----|---|--|--------------------------------|---|
| 2. | <p>Iqtidorli talaba va o'quvchilarning maqsadli faoliyatini tizimli tashkil etish hamda ularni yangi marralar sari yo'naltirish maqsadida "Yilning eng faol talabasi", "Yilning eng faol o'quvchisi", va "Islohotlar bilimdoni" respublika tanlovlari haqida ta'lim muassasalarida targ'ibot ishlarini tashkil etish.</p> | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Har bir oliy ta'lim muassasasida tanloving targ'ibot ishlarini olib borish.</li> <li>2. Nizom asosida oliy ta'lim muassasasida targ'ibot ishlarini amalga oshirish.</li> </ol>   | 2024 yil iyul reja asosida     | <p>Oliy ta'lim muassasalari, Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'limlari, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar</p>  |
| 3. | <p>"Yilning eng faol talabasi", "Yilning eng faol o'quvchisi" va "Islohotlar bilimdoni" respublika tanlovlarini oliy va professional ta'lim muassasasi bosqichini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish</p>  | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Hududlardagi mutasaddi idoralar bilan birgalikda tasdiqlangan nizom asosida ko'rik-tanlovnii yuqori saviyada tashkil etish.</li> <li>2. Ko'rik-tanlov g'olib va sovrindorlarini aniqlash hamda ularni munosib taqdirlash.</li> <li>3. Ko'rik-tanlov g'olibini respublika bosqichida ishtirok etishini ta'minlash.</li> </ol> | Nizomga muvofiq sentabr oktabr | <p>Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi,<br/>Oliy ta'lim muassasalari, Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'limlari, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya, Madaniyat vazirligi</p> |
| 4. | <p>"Yilning eng faol talabasi", "Yilning eng faol o'quvchisi" va "Islohotlar bilimdoni" respublika tanlovlarining respublika bosqichini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish.</p>   | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mutasaddi idoralar bilan birgalikda tasdiqlangan nizom asosida ko'rik-tanlovnii yuqori saviyada tashkil etish.</li> <li>2. Ko'rik-tanlov g'olib va sovrindorlarini aniqlash hamda ularni munosib taqdirlash.</li> </ol>  | Nizomga muvofiq noyabr         | <p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi, Yoshlar ishlari agentligi Fanlar akademiyasi va boshqa manfaatdor idoralar</p>                       |

|    |   |  |        |  |
|----|---|--|--------|--|
| 5. | <p>“Yilning eng faol talabasi”, “Yilning eng faol o‘quvchisi”, va “Islohotlar bilimdoni” respublika tanlovlarining barcha bosqichini ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish</p> | <p>1. Ko‘rik-tanlovning barcha bosqichini OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish.</p> | Doimiy | <p>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Talaba va o‘quvchilarining ijtimoiy faolligini oshirish markazi, Oliy ta’lim muassasalari</p> |
|----|---|--|--------|--|

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi 2024-yil “25” iyul 27.8.24  
Madaniyat vazirligining  
2024-yil “25” iyul 01.07.24  
Yoshlar ishlari agentligining  
2024-yil “29” iyul 01.08.24  
Fanlar akademiyasining  
2024-yil “25” iyul 21.8.24,  
O'zbekiston Badiiy akademiyasining  
2024-yil “25” iyul 01.08.24  
-son qaroriga 3-ilova

## **O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif muassasalari talabalari o'rtaida o'tkaziladigan "Eng faol yil talabasi" tanlovining NIZOMI**

### **I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, respublikamizdagi barcha oliy ta'lif muassasalarida (kunduzgi ta'lif shaklida) tahsil olayotgan talabalar o'rtaida "Eng faol yil talabasi" tanlovini (keyingi o'rinnarda – Tanlov) o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlovning asosiy maqsadi: jamiyatga, davlatga yetuk yosh, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib berish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, intellektual salohiyatini oshirish, oliy o'quv yurtlaridagi iqtidorli talabalarni aniqlash, ularning o'z salohiyatlarini namoyon etishlariga imkoniyatlar yaratish, jamoatchilik, fidoyilik fazilatlarini shakllantirish, talabalik nufuzini oshirish hamda rag'batlantirishdan iborat.

3. Tanlov bosqichma-bosqich, ushbu qo'shma qarorning 3-ilovasidagi sxemaga muvofiq (tanlovnin o'tkazishda zarur hollarda o'zgartirish kiritilishi mumkin) quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

a) Tanlovning birinchi bosqichi har bir oliy ta'lif muassasasida ikki turda tashkillashtiriladi:

birinchi tur – har bir fakultet (kesimi)da o'tkaziladi;

ikkinchi tur – oliy ta'lif muassasasi miqyosida fakultetlar kesimida g'olib bo'lgan ishtirokchilar o'rtaida o'tkaziladi;

b) Tanlovning respublika bosqichi joriy yilning dekabr oyida o'tkaziladi.

4. Quyidagilar tanlov o'tkazishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) birinchi – oliy ta'lif muassasasi bosqichida rektor (direktor) boshchiligida tegishli mutaxassislar tarkibidan tanlov komissiyasi tashkil etilib, ular tomonidan:

har bir oliy ta'lif muassasasida tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan o'rganish asosida tanlovga tavsiya etilgan talabalarning taqdimotini tashkil etish;

tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan fanlarni o'zlashtirish natijalari, jamoatchilik ishlari va erishilgan yutuqlar aks etgan hujjatlarni,

talabalarning ilmiy va ijodiy ishlarini qabul qilish va o‘rganish asnosida tahlil etish;

tanlov ishtirokchilarining darslardagi ishtiroki, faollik darajasi, yetakchilik qobiliyatini kuzatish va baholash hamda g‘olib deb topilgan ishtirokchiga tanlovnning respublika bosqichida qatnashishi uchun tavsiyanoma berish;

b) ikkinchi, respublika bosqichida Tashkiliy ishchi guruh va tanlov komissiyasi tomonidan:

oliy ta’lim muassasalaridan taqdim etilgan tavsiya hujjatlarini va tanlov ishtirokchilarining taqdimot materiallarini qabul qilish, o‘rganish va tahlil etish asosida g‘oliblarni aniqlash;

tanlov g‘oliblarining moddiy va ma’naviy rag‘batlantirilishini tashkil etish;

tanlov o‘tishi va natijalarining ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini tashkil etish ishlari amalga oshiriladi.

5. Tanlov quyidagi nominatsiyalar bo‘yicha o‘tkaziladi:

a) “**Yilning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha eng bilimdon talabasi**”, bunda talabaning fanlarni o‘zlashtirishi va o‘quv jarayonlardagi ishtiroki va faolligi, chop etilgan maqola va tezislari hamda ularning mazmun-mohiyati, dolzarbligiga oid ishlar ko‘rib chiqiladi;

b) “**Yilning eng faol targ‘ibotchi talabasi**”, bunda talabaning oliy ta’lim muassasasi jamoat ishlaridagi va boshqa jamoat tashkilotlari faoliyatidagi amaliy ishtiroki, faollik darajasi, targ‘ibotchi sifatidagi namunaviy ishlari, tashkilotchilik qobiliyati va shu asosda o‘zi tashkil etgan tadbirlar mazmuni, erishgan yutuqlari ko‘rib chiqiladi;

d) “**Yilning eng faol ixtirochi-innovator talabasi**”, bunda joriy yilda talaba tomonidan yaratilgan ilmiy ishlari, ixtiolar, innovatsion g‘oyalari, ratsionalizatorlik takliflari, ularning yangiligi, dolzarbliyi va ilmiy ahamiyati ko‘rib chiqiladi;

e) “**Yilning eng faol sportchi talabasi**”, bunda joriy yilda talabaning xalqaro va respublika miqyosidagi o‘tkazilgan sport musobaqalaridagi yutuqlari va erishgan natijalari ko‘rib chiqiladi;

f) “**Yilning eng faol iqtidorli talabasi**”, (rangtasvir, grafika, dizayn, amaliy san‘at, haykaltaroshlik bo‘yicha), bunda talabaning joriy yilda mustaqil ravishda yaratgan ijodiy asarlari, erishgan yutuqlari hamda turli tanlov va ko‘rgazmalardagi ishtiroki ko‘rib chiqiladi.

g) “**Yilning eng faol ijodkor talabasi**”, bunda talabaning joriy yilda o‘z ijodiy badiiy asarlar, maqola, joriy yilda chop etilgan risola, kitob, musiqa, kino va teatr sohasidagi qiziqishlari hamda ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-ijodiy jarayonlardagi ishtiroki va erishgan yutuqlari ko‘rib chiqiladi.

h) “**Yilning eng faol tadbirdor talabasi**” (xotin-qizlar uchun), bunda joriy yilda mustaqil ravishda tadbirdorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yan talaba-qizlarning erishgan yutuqlari hamda yoshlarni ish bilan ta’minlaganlik darajasi ko‘rib chiqiladi.

## **II. Tanloving oliy ta’lim muassasasidagi bosqichini tashkil etish tartibi**

6. Tanloving oliy ta’lim muassasasidagi bosqichi noyabr oyida o’tkaziladi.

7. Tanloving oliy ta’lim muassasasi bosqichining ikkita turda o’tkazilganligi to‘g‘risidagi yig‘ilish (har bir tur bo‘yicha alohida) bayonnomalari tanlov komissiyasi a’zolari imzosi bilan tasdiqlanadi va bayonnaoma g‘olib to‘g‘risidagi ma’lumotlar yig‘majildi bilan birgalikda belgilangan muddatda Respublika tashkiliy ishchi guruhiga taqdim etiladi.

8. Tanlov komissiyasi oliy ta’lim muassasasining ma’muriy-boshqaruv xodimlari, mutaxassis-o‘qituvchilar, hamkor tashkilotlardan jalg etilgan mutaxassislar, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat tarkibda tashkil etiladi.

9. Tanlov komissiyasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

tanloving oliy ta’lim muassasasidagi bosqichi axborot ta’minotini tashkil qiladi;

tanlov ishtirokchilaridan buyurtmanomalar va materiallarni qabul qilishni tashkil etadi;

tanlov ishtirokchisi taqdim etgan hujjatlarni hamda darslarda va jamoat ishlaridagi ishtiroki sifatini baholaydi;

10. Tanlovda oliy ta’lim muassasasida uzlusiz (akademik ta’tilsiz) kunduzgi ta’lim shaklida o‘qib kelayotgan 2, 3, 4-bosqich talabalari ishtirok etishi mumkin.

11. Mazkur tanlovda oldingi yillarda ishtirok etib, Respublika bosqichida (1, 2 va 3-o‘ringa sazovor bo‘lgan) g‘oliblikni qo‘lga kiritgan nomzodlar tanlovda 3 yil davomida qayta ishtirok etmaydi.

12. Tanloving oliy ta’lim muassasasi bosqichida ishtirok etish istagini bildirgan talabalar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar to‘plami tegishli fakultet dekanati tomonidan saralanadi va belgilangan muddatlarda tanlov komissiyasiga taqdim etiladi.

13. Ishtirokchiga tegishli bo‘lgan quyidagi hujjatlar to‘plami fakultet dekanati tomonidan tayyorlanadi va tanlov komissiyasiga taqdim etiladi:

tanlov ishtirokchisining qobiliyati, fanlarni o‘zlashtirish darajasi, yetakchilik qobiliyati, erishgan yutuqlari, darslardagi faol ishtiroki, talabalarga o‘rnak bo‘ladigan jihatlari va jamoat ishlaridagi faoliyati haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan ikki betdan oshmaydigan hajmdagi taqdimnoma;

tanlov ishtirokchisining fanlarni o‘zlashtirish natijalari aks etgan hujjatlar (baholarni qayd etish varaqalari, talabaning baholarni o‘zlashtirish sinov daftarchasi) nusxalari;

tanlov ishtirokchisining nashr etilgan ilmiy, ilmiy-uslubiy, ijodiy ishlari, ularga tegishli mutaxassislardan olingan taqrizlar bilan birga va ijodiy ishlarning elektron shakli;

xalqaro va respublikamiz miqyosida o‘tkazilgan tadbirlar, tanlovlarda faxriy yorliqlar va diplomlar bilan taqdirlanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar (nusxalari ilova qilinadi);

grantlarda ishtirok etganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma, grantning nomi, moliyalashtirish hajmi, ishtirokning shakli va darajasi ko‘rsatiladi;

konferensiyalardagi ishtiroki haqidagi ma'lumotlar, ilmiy ishlar ro'yxati va ilmiy ishlar nusxalari ilova sifatida taqdim etiladi;

hujjatlar to'plamiga kiritilgan materiallar va axborotlar joriy yil davomida chop etilgan bo'lishi lozim.

14. Tanlov komissiyasi, ishtirokchilarining hujjatlar to'plami, darslarda va jamoat ishlarida ishtiroki sifatini, shuningdek, ishtirokchi bilan individual o'tkazilgan suhbat doirasida olingen ma'lumotlarni baholash natijalarini hisobga olgan holda, har bir nominatsiya bo'yicha g'olib (1-2-3-o'rinn)larni aniqlaydi va birinchi o'rinn sovrindorlarini tanlovnning respublika bosqichida qatnashish uchun tavsiya etadi.

15. Nominatsiyalar bo'yicha 1-2-3-o'rinnlarni egallagan g'olib va sovrindorlar oliy ta'lim muassasasining faxriy yorlig'i bilan mukofotlanadi hamda tegishli ravishda 1-o'rinn sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 8 barobari miqdorida, 2-o'rinn sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 6 barobari miqdorida va 3-o'rinn sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 4 barobari miqdorida moddiy rag'batlantiriladi.

16. Moddiy rag'batlantirish uchun pul mablag'lari oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i asosida oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ajratiladi.

### **III. Tanlov tashkilotchilari va hamkor tashkilotlar.**

17. Tanlovnning respublika bosqichi Tashkiliy ishchi guruhi tomonidan har yili dekabr oyida o'tkaziladi.

18. Quyidagilar Tashkiliy ishchi guruhining asosiy vazifalari hisoblanadi:  
tanlovn ni o'tkazish muddatlarini belgilash (zarur hollarda masofaviy-onlayn shaklida) va uni yuqori darajada o'tkazish;

har bir nominatsiya bo'yicha alohida tanlov komissiyasi (ekspertlar guruhi) tarkibini shakllantirish;

har bir nominatsiya bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish;

19. Tashkiliy ishchi guruhi qoidaga ko'ra, rais, rais o'rribbosari, Tashkiliy ishchi guruh kotibi va a'zolaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Tashkiliy ishchi guruh raisi, rais o'rribbosari va kotibi uning a'zolari orasidan saylanadi.

20. Tashkiliy ishchi guruh raisi:

Tashkiliy ishchi guruhi majlisi kun tartibini belgilaydi va uni o'tkazadi;

Tashkiliy ishchi guruhi qarorlarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

Tashkiliy ishchi guruhi a'zolariga yuklangan vazifalarni bajarish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi.

21. Tashkiliy ishchi guruhi a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

Tashkiliy ishchi guruhi majlislarida ko'rib chiqilayotgan masalalarni muhokama qilishda va hal etishda qatnashish;

ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha xulosalar taqdim etish.

Tashkiliy ishchi guruhi faoliyatida ishtirok etish jamoatchilik asosida amalga oshiriladi.

22. Tashkiliy ishchi guruhi majlisini rais yoki rais o'rribbosari boshqaradi.

Tashkiliy ishchi guruhi majlisi a'zolarining uchdan ikki qismi qatnashganda vakolatli hisoblanadi.

23. Tashkiliy ishchi guruhi kotibi:

Tashkiliy ishchi guruhi majlisiga barcha zarur hujjatlarning o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi;

Tashkiliy ishchi guruhi raisi bilan majlisning o'tkaziladigan joyi va vaqtini kelishadi;

Tashkiliy ishchi guruhi a'zolarini majlisning o'tkazilish sanasi, joyi va kun tartibidan xabardor qiladi;

Tashkiliy ishchi guruhi majlislarining kun tartibidagi masalalar bo'yicha o'tkazilishini tashkil etadi;

Tashkiliy ishchi guruhi majlisi bayonnomalarini rasmiylashtiradi va tasdiqlangandan so'ng Tashkiliy ishchi guruhi a'zolariga va manfaatdor tashkilotlarga yuboradi.

24. Tashkiliy ishchi guruhi qarori a'zolarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lganda Tashkiliy qo'mita raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

25. Tashkiliy ishchi guruhining ish tartibi u tasdiqlaydigan reglament asosida belgilanadi.

26. Tanlovning ta'sischisi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hisoblanadi.

27. Tashkilotchi tanlovning barcha bosqichlarini tashkillashtirish va o'tkazish jarayonida Tashkiliy ishchi guruhi tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlashda bevosita hamkorlik qiladi va o'z vakillarining Tashkiliy ishchi guruhi a'zosi sifatida samarali ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

#### **IV. Tanlovning Respublika bosqichini o'tkazish**

28. Tanlov komissiyalarining har bir nominatsiya bo'yicha tarkiblari Respublika Tashkiliy ishchi guruhi tomonidan tasdiqlanadi.

29. Tanlov komissiyalari tanlovning Respublika bosqichiga taqdim etilgan ishtirokchilarning hujjatlarini 10 ish kuni mobaynida ko'rib chiqadi hamda har bir nominatsiya bo'yicha komissiya a'zolari tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar asosida tanlov ishlari baholash orqali har bir nominatsiya bo'yicha g'oliblar (1-2-3-o'rin) aniqlanadi. Tanlov komissiyalari majlislari bayonnomalari Tashkiliy ishchi guruhi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

30. Tanlovning Respublika bosqichida har bir nominatsiyalar bo'yicha 1-2-3-o'rin sohiblari bo'lgan ishtirokchilar tanlov statuetkasi, guldasta, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli darajadagi diplomlari va 1-o'rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 15 barobari miqdorida pul mukofoti, 2-o'rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 10 barobari miqdorida pul mukofoti hamda 3-o'rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 8 barobari miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

31. Tanlovning respublika bosqichi g'oliblarini moddiy rag'batlantirish O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'i asosida oliy ta'lif muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

32. Tanlov g'oliblari oliy ta'lif muassasalarining homiy tashkilotlari tomonidan qo'shimcha ravishda rag'batlantirilishi mumkin.

33. Tasarrufida oliy ta'lif muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar o'z hisoblaridan tanlov g'oliblarini qo'shimcha ravishda moddiy rag'batlantirishga haqlidirlar.

34. G'oliblarni mukofotlash tadbiri tanlovning Tashkiliy ishchi guruhi qarori asosida belgilangan muddatda tantanali ravishda o'tkaziladi.

35. Tanlovga taqdim etilgan hujjatlar qaytarilmaydi.

36. Mazkur tanlovni tashkil etish va o'tkazishda mas'ul bo'lgan xodimlar asosiy ish joyidan rag'batlantiriladi.

#### **V. Yakuniy qoidalar**

37. Tanlov natijalari ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy veb-saytlarda e'lon qilib boriladi.

38. Tanlov ishtirokchisi (boshqa shaxs) tomonidan tanlovning yakuniy bosqichini tashkil etish va o'tkazish, shuningdek, uning natijasi bilan bog'liq murojaat (e'tiroz)lar qabul qilinmaydi.

39. Mazkur nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

## “Eng faol yil talabasi” tanlovini o‘tkazish

### S X E M A S I

| Bosqichlar  | Tadbirlar  | O‘tkazish muddatlari   |
|---|--|--|
| <b>I bosqich</b><br>Oliy ta’lim muassasasi bosqichi | <p>Tanlov komissiyasining tarkibini shakllantirish va tasdiqlash.</p> <p>Tanlovning oliy ta’lim muassasasi bosqichi axborot ta’minotini tashkil etish.</p> <p>Ishtirokchilardan ariza va hujjatlarni qabul qilishni tashkil qilish.</p> <p>Tanlov komissiyasi tomonidan ishtirokchilar taqdim etgan hujjatlarni ko‘rib chiqish.</p> <p>Tanlovning oliy ta’lim muassasasi bosqichi g‘oliblarini aniqlash.</p> <p>G‘oliblarga tanlovning respublika bosqichida ishtirok etish uchun tavsiyanomalar berish.</p>                           | 20-oktabr – 22-oktabr<br>22-oktabr – 30-oktabr<br>25- oktabr – 31-oktabr<br>1-noyabr – 4-noyabr<br>6-noyabr – 10-noyabr<br>10-noyabr – 15-noyabr                                 |
| <b>II bosqich</b><br>Respublika bosqichi            | <p>Tanlovning respublika bosqichi komissiya tarkibini shakllantirish va tasdiqlash.</p> <p>Oliy ta’lim muassasalaridan tanlovning oliy ta’lim muassasasi bosqichida 1-o‘rinni egallab g‘olib bo‘lgan nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish.</p> <p>Tanlovga kelib tushgan hujjatlarni ko‘rib chiqish.</p> <p>Yo‘nalishlar bo‘yicha tanlov g‘oliblarini aniqlash.</p> <p>Tanlov g‘oliblarini mukofotlashni tantanali vaziyatda o‘tkazish.</p> <p>Tanlovning o‘tishini ommaviy axborot vositalarida keng yoritishni tashkil etish.</p> | 15-noyabr – 18-noyabr<br>18-noyabr – 23-noyabr<br>24-noyabr – 28-noyabr<br>29- noyabr – 8-dekabr<br>Tashkiliy qo‘mita qaroriga ko‘ra belgilangan muddatda<br>Jarayonlar davomida |

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi 2024-yil “25 iyul 27/08  
Madaniyat vazirligining  
2024-yil “25 iyul 01-17-15  
Yoshlar ishlari agentligining  
2024-yil “29 iyul 01-07-21  
Fanlar akademiyasining  
2024-yil “25 iyul 27/05,  
O'zbekiston Badiiy akademiyasining  
2024-yil “25 iyul 01-07-03  
-son qaroriga 4-ilova

**Professional ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan  
“Yilning eng faol o'quvchisi” tanlovingin  
NIZOMI**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, respublikamizdagi barcha professional ta'lim muassasalarida (kunduzgi ta'lim shaklida) tahlil olayotgan o'quvchilar o'rtasida “Yilning eng faol o'quvchisi” tanlovini (keyingi o'rinnarda – Tanlov) o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanloving asosiy maqsadi: jamiyatga, davlatga yetuk yosh, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib berish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, intellektual salohiyatini oshirish, professional o'quv ta'lim muassasasidagi iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning o'z salohiyatlarini namoyon etishlariga imkoniyatlar yaratish, jamoatchilik, fidoyilik fazilatlarini shakllantirish, o'quvchilik nufuzini oshirish hamda rag'batlantirishdan iborat.

3. Tanlov ikki bosqichdan iborat bo'ladi:

a) Tanloving birinchi bosqichi har bir professional ta'lim muassasasida tashkillashtiriladi.

b) Tanloving respublika bosqichi joriy yilning dekabr oyida o'tkaziladi.

4. Quyidagilar tanlov o'tkazishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) birinchi – professional ta'lim muassasasi bosqichida direktor boshchiligidagi tegishli mutaxassislar tarkibidan tanlov komissiyasi tashkil etilib, ular tomonidan:

har bir professional ta'lim muassasasida tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan o'rganish asosida tanlovga tavsiya etilgan o'quvchilarning taqdimotini tashkil etish;

tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan fanlarni o'zlashtirish natijalari, jamoatchilik ishlari va erishilgan yutuqlar aks etgan hujjatlarni, o'quvchilarning ijodiy ishlarini qabul qilish va o'rganish asnosida tahlil etish;

tanlov ishtirokchilarining darslardagi ishtiroki, faollik darajasi, yetakchilik qobiliyatini kuzatish va baholash hamda g'olib deb topilgan ishtirokchiga tanloving respublika bosqichida qatnashishi uchun tavsiyanoma berish;

b) ikkinchi, respublika bosqichida Tashkiliy ishchi guruh va tanlov komissiyasi tomonidan:

professional ta’lim muassasalaridan taqdim etilgan tavsiya hujjatlarini va tanlov ishtirokchilarining taqdimot materiallarini qabul qilish, o’rganish va tahlil etish asosida g’oliblarni aniqlash;

tanlov g’oliblarining moddiy va ma’naviy rag’batlantirilishini tashkil etish;

tanlov o’tishi va natijalarining ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini tashkil etish ishlari amalgalash;

5. Tanlov quyidagi nominatsiyalar bo‘yicha o’tkaziladi:

a) “**Yilning eng bilimdon o‘quvchisi**”, bunda o‘quvchining fanlarni o‘zlashtirishi va o‘quv jarayonlardagi ishtiroki va faolligi, chop etilgan ijodiy ishlari hamda ularning mazmun-mohiyati, dolzarbligiga oid ishlar ko‘rib chiqiladi;

b) “**Yilning eng faol targ‘ibotchi o‘quvchisi**”, bunda o‘quvchining professional ta’lim muassasasi jamoat ishlaridagi va boshqa jamoat tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan turli tanlov va musobaqalardagi faollik darajasi, targ‘ibotchi sifatidagi namunaviy ishlari, tashkilotchilik qobiliyati va shu asosda o‘zi tashkil etgan tadbirlar mazmuni, erishgan yutuqlari ko‘rib chiqiladi;

d) “**Yilning eng faol ixtirochi-innovator o‘quvchisi**”, bunda joriy yilda o‘quvchi tomonidan yaratilgan ilmiy ishlari, ixtiolar, innovatsion g‘oyalari, ratsionalizatorlik takliflari, ularning yangiligi, dolzarbligi va ilmiy ahamiyati ko‘rib chiqiladi;

e) “**Yilning eng faol sportchi o‘quvchisi**”, bunda joriy yilda o‘quvchining xalqaro va respublika miqyosidagi o’tkazilgan sport musobaqalaridagi yutuqlari va erishgan natijalari ko‘rib chiqiladi;

f) “**Yilning eng faol iqtidorli o‘quvchisi**”, (rangtasvir, grafika, dizayn, amaliy san’at, haykaltaroshlik bo‘yicha), bunda o‘quvchining joriy yilda mustaqil ravishda yaratgan ijodiy asarlari, erishgan yutuqlari hamda turli tanlov va ko‘rgazmalardagi ishtiroki ko‘rib chiqiladi.

## **II. Tanloving professional ta’lim muassasasidagi bosqichini tashkil etish tartibi**

6. Tanloving professional ta’lim muassasasidagi bosqichi noyabr oyida o’tkaziladi.

7. Tanloving professional ta’lim muassasasi bosqichining o’tkazilganligi to‘g‘risidagi yig‘ilish bayonnomalari tanlov komissiyasi a’zolari imzosi bilan tasdiqlanadi va bayonnomaga g‘olib to‘g‘risidagi ma’lumotlar yig‘majildi bilan birgalikda belgilangan muddatda (20-noyabrga qadar) Respublika tashkiliy ishchi guruhiiga taqdim etiladi.

8. Tanlov komissiyasi professional ta’lim muassasasining ma’muriy-boshqaruv xodimlari, mutaxassis-o‘qituvchilar, hamkor tashkilotlardan jalb etilgan mutaxassislar, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat tarkibda tashkil etiladi.

9. Tanlov komissiyasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

tanloving professional ta’lim muassasasidagi bosqichi axborot ta’minotini tashkil qiladi;

tanlov ishtirokchilaridan buyurtmanomalar va materiallarni qabul qilishni tashkil etadi;

tanlov ishtirokchisi taqdim etgan hujjatlarni hamda darslarda va jamoat ishlaridagi ishtiroki sifatini baholaydi;

10. Tanlovda professional ta'lim muassasasida uzlucksiz (akademik ta'tilsiz) kunduzgi ta'lim shaklida o'qib kelayotgan 2, 3-bosqich o'quvchilari ishtirok etishi mumkin.

11. Mazkur tanlovda oldingi yillarda ishtirok etib, Respublika bosqichida (1, 2 va 3-o'ringa sazovor bo'lgan) g'oliblikni qo'lga kiritgan nomzodlar tanlovda 2 yil davomida qayta ishtirok etmaydi.

12. Tanlovning professional ta'lim muassasasi bosqichida ishtirok etish istagini bildirgan o'quvchilarning guruh murabbiylari tomonidan quyidagi hujjatlar belgilangan muddatlarda tanlov komissiyasiga taqdim etiladi:

tanlov ishtirokchisining qobiliyati, fanlarni o'zlashtirish darajasi, yetakchilik qobiliyati, erishgan yutuqlari, darslardagi faol ishtiroki, o'quvchilarga o'rnat bo'ladigan jihatlari va jamoat ishlaridagi faoliyati haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan ikki betdan oshmaydigan hajmdagi taqdimnoma;

tanlov ishtirokchisining fanlarni o'zlashtirish natijalari aks etgan hujjatlar (baholarni qayd etish varaqalari, o'quvchining baholarni o'zlashtirish sinov daftarchasi) nusxalari;

tanlov ishtirokchisining nashr etilgan ijodiy ishlarning elektron shakli;

xalqaro va respublika miqyosida o'tkazilgan tadbirlar, tanlovlarda faxriy yorliqlar va diplomlar bilan taqdirlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar (nusxalari ilova qilinadi);

hujjatlar to'plamiga kiritilgan materiallar va axborotlar joriy yil davomida chop etilgan bo'lishi lozim.

13. Tanlov komissiyasi, ishtirokchilarning hujjatlar to'plami, darslarda va jamoat ishlarida ishtiroki sifatini, shuningdek, ishtirokchi bilan individual o'tkazilgan suhbat doirasida olingan ma'lumotlarni baholash natijalarini hisobga olgan holda, har bir nominatsiya bo'yicha g'olib (1-2-3-o'rin)larni aniqlaydi va birinchi o'rin sovrindorlarini tanlovning respublika bosqichida qatnashish uchun tavsiya etadi.

14. Nominatsiyalar bo'yicha 1-2-3-o'rinlarni egallagan g'olib va sovrindorlar professional ta'lim muassasasining faxriy yorlig'i va esdalik sovg'alari bilan mukofotlanadi.

### **III. Tanlov tashkilotchilari va hamkor tashkilotlar**

15. Tanlovning respublika bosqichi Tashkiliy ishchi guruhi tomonidan har yili dekabr oyida o'tkaziladi.

16. Quyidagilar Tashkiliy ishchi guruhining asosiy vazifalari hisoblanadi:

tanlovnvi o'tkazish muddatlarini belgilash va uni yuqori darajada o'tkazish;

har bir nominatsiya bo'yicha tanlov komissiyasi (ekspertlar guruhi) tarkibini shakllantirish;

nominatsiyalar bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish;

17. Tashkiliy ishchi guruhi qoidaga ko‘ra, rais, rais o‘rribbosari, Tashkiliy ishchi guruh kotibi va a’zolaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Tashkiliy ishchi guruh raisi, rais o‘rribbosari va kotibi uning a’zolari orasidan sayylanadi.

18. Tashkiliy ishchi guruh raisi:

Tashkiliy ishchi guruhi majlisi kun tartibini belgilaydi va uni o‘tkazadi;

Tashkiliy ishchi guruhi qarorlarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

Tashkiliy ishchi guruhi a’zolariga yuklangan vazifalarni bajarish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiradi.

19. Tashkiliy ishchi guruhi a’zolari quyidagi huquqlarga ega:

Tashkiliy ishchi guruhi majlislarida ko‘rib chiqilayotgan masalalarni muhokama qilishda va hal etishda qatnashish;

ko‘rib chiqilayotgan masalalar bo‘yicha xulosalar taqdim etish.

Tashkiliy ishchi guruhi faoliyatida ishtirok etish jamoatchilik asosida amalga oshiriladi.

20. Tashkiliy ishchi guruhi majlisini rais yoki rais o‘rribbosari boshqaradi.

Tashkiliy ishchi guruhi majlisi a’zolarining uchdan ikki qismi qatnashganda vakolatli hisoblanadi.

21. Tashkiliy ishchi guruhi kotibi:

Tashkiliy ishchi guruhi majlisiga barcha zarur hujjatlarning o‘z vaqtida tayyorlanishini ta’minlaydi;

Tashkiliy ishchi guruhi raisi bilan majlisning o‘tkaziladigan joyi va vaqtini kelishadi;

Tashkiliy ishchi guruhi a’zolarini majlisning o‘tkazilish sanasi, joyi va kun tartibidan xabardor qiladi;

Tashkiliy ishchi guruhi majlislarining kun tartibidagi masalalar bo‘yicha o‘tkazilishini tashkil etadi;

Tashkiliy ishchi guruhi majlisi bayonnomalarini rasmiylashtiradi.

22. Tashkiliy ishchi guruhi qarori a’zolarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lganda Tashkiliy qo‘mita raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

23. Tashkiliy ishchi guruhining ish tartibi u tasdiqlaydigan reglament asosida belgilanadi.

24. Tanlovning ta’sischisi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hisoblanadi.

25. Tashkilotchi tanlovning barcha bosqichlarini tashkillashtirish va o‘tkazish jarayonida Tashkiliy ishchi guruhi tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini ta’minalashda bevosita hamkorlik qiladi va o‘z vakillarining Tashkiliy ishchi guruhi a’zosi sifatida samarali ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratadi va Tashkiliy ishchi guruhi a’zolarini samarali faoliyati uchun rag‘batlantiradi.

#### **IV. Tanlovning Respublika bosqichini o‘tkazish**

26. Tanlov komissiyalarining tarkiblari Respublika Tashkiliy ishchi guruhi tomonidan tasdiqlanadi.

27. Tanlov komissiyalari tanlovning Respublika bosqichiga taqdim etilgan ishtirokchilarning hujjatlarini 10 ish kuni mobaynida (noyabr-dekabr oylari davomida) ko‘rib chiqadi hamda har bir nominatsiya bo‘yicha komissiya a’zolari tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar asosida tanlov ishlari baholash orqali har bir nominatsiya bo‘yicha g‘oliblar (1-2-3-o‘rin) aniqlanadi. Tanlov komissiyalari majlislari bayonnomalari Tashkiliy ishchi guruhi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

28. Tanlovning Respublika bosqichida har bir nominatsiyalar bo‘yicha 1-2-3-o‘rin sohiblari bo‘lgan ishtirokchilar tanlov statuetkasi, guldasta, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli darajadagi diplomlari va Yoshlar ishlari agentligi tomonidan har bir nominatsiyalar bo‘yicha 1-o‘rin sohiblari 1 donadan televizor, 2-o‘rin sohiblari 1 donadan planshet hamda 3-o‘rin sohiblari 1 donadan maxsus sovg‘a bilan taqdirlanadi.

29. Tanlov g‘oliblari professional ta’lim muassasalarining homiy tashkilotlari tomonidan qo‘srimcha ravishda rag‘batlantirilishi mumkin.

30. Tasarrufida professional ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar o‘z hisoblaridan tanlov g‘oliblarini qo‘srimcha ravishda moddiy rag‘batlantirishga haqlidirlar.

31. G‘oliblarni mukofotlash tadbiri tanlovning Tashkiliy ishchi guruhi qarori asosida belgilangan muddatda tantanali ravishda o‘tkaziladi.

32. Tanlovga taqdim etilgan hujjatlar qaytarilmaydi.

33. Mazkur tanlovnin tashkil etish va o‘tkazishda mas’ul bo‘lgan xodimlar asosiy ish joyidan rag‘batlantiriladi.

#### **V. Yakuniy qoidalar**

34. Tanlov natijalari ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy veb-saytlarda e’lon qilib boriladi.

35. Tanlov ishtirokchisi (boshqa shaxs) tomonidan tanlovning yakuniy bosqichini tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek, uning natijasi bilan bog‘liq murojaat (e’tiroz)lar qabul qilinmaydi.

36. Mazkur nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

## “Yilning eng faol o‘quvchisi” tanlovini o‘tkazish

### S X E M A S I

| Bosqichlar  | Tadbirlar   | O‘tkazish muddatlari |
|---|---|----------------------|
| <b>I bosqich</b><br>Professional ta’lim muassasasi bosqichi | <p>Tanlov komissiyasining tarkibini shakllantirish va tasdiqlash.</p> <p>Tanlovnинг professional ta’lim muassasasi bosqichi axborot ta’minotini tashkil etish.</p> <p>Ishtirokchilardan ariza va hujjatlarni qabul qilishni tashkil qilish.</p> <p>Tanlov komissiyasi tomonidan ishtirokchilar taqdim etgan hujjatlarni ko‘rib chiqish.</p> <p>Tanlovnинг professional ta’lim muassasasi bosqichi g‘oliblari aniqlash.</p> <p>G‘oliblarga tanlovnинг respublika bosqichida ishtirok etish uchun tavsiyanomalar berish.</p>                      | 20-noyabrga qadar    |
| <b>II bosqich</b><br>Respublika bosqichi                    | <p>Tanlovnинг respublika bosqichi komissiya tarkibini shakllantirish va tasdiqlash.</p> <p>Professional ta’lim muassasalaridan tanlovnинг professional ta’lim muassasasi bosqichida 1-o‘rinni egallab g‘olib bo‘lgan nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish.</p> <p>Tanlovga kelib tushgan hujjatlarni ko‘rib chiqish.</p> <p>Yo‘nalishlar bo‘yicha tanlov g‘oliblari aniqlash.</p> <p>Tanlov g‘oliblari mukofotlashni tantanali tarzda o‘tkazish.</p> <p>Tanlovnинг o‘tishini ommaviy axborot vositalarida keng yoritishni tashkil etish.</p> | 10-dekabrga qadar    |

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024-yil “25 iyul 27.07.24  
Madaniyat vazirligining  
2024-yil “25 iyul 01.07.15  
Yoshlar ishlari agentligining  
2024-yil “29 iyul 01.07.21  
Fanlar akademiyasining  
2024-yil “25 iyul 21.05,  
O'zbekiston Badiiy akademiyasining  
2024-yil “25 iyul 01.07.03.03  
-son qaroriga 5-ilova

## **“Islohotlar bilimdoni” keng tarmoqli respublika ilmiy-ma'rifiy ko'rik-tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risidagi NIZOM**

### **I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom Oliy ta'lim muassasalari pedagog xodimlari, talabalar o'rtaida “Islohotlar bilimdoni” keng tarmoqli respublika ilmiy-ma'rifiy ko'rik-tanlovini (keyingi o'rnlarda – “ko'rik-tanlov”, deb yuritiladi) o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur ko'rik-tanlov “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarorining ilovasi bilan tasdiqlangan “Ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi”ning 22-bandida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirishga yo'naltirilgan.

3. Ko'rik-tanlov quyidagi nominatsiyalar bo'yicha o'tkaziladi:

“Eng faol milliy g'oya va ma'naviyat targ'ibotchisi” nominatsiyasi;  
“Ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha eng yaxshi kafedra” nominatsiyasi;  
“Eng yaxshi tyutor” nominatsiyasi;  
“Eng faol xotin-qizlar maslahat kengashi raisi” nominatsiyasi;  
“Eng faol islohotlar targ'ibotchisi” nominatsiyasi.

4. Ko'rik-tanlovni yuqori saviyada o'tkazish uchun Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar hamda oliy ta'lim muassasalari mas'ul tashkilotlar etib belgilanadi.

### **II. Ko'rik - tanlovning maqsad va vazifalari**

5. Pedagog xodimlar, talaba-yoshlarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlar to'g'risida xabardor qilib

borish, ta’lim muassasasi faoliyatining ochiqligi va oshkoraligni, axborot erkinligini ta’minlashdek demokratik islohotlarni chuqur o’rganish, shuningdek, ular ongida yangilanayotgan O’zbekistonda uchinchi renessansning poydevori qo‘yilganligiga ijtimoiy munosabatni hamda yurt tinchligi, vatan ravnaqini ta’minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan misli ko‘rilmagan yutuqlarga nisbatan daxldorlik tuyg‘usini, mafkuraviy immunitetini shakllantirish maqsadida tashkil etiladi.

6. Ko‘rik-tanlovni tashkil etish orqali quyidagi vazifalar bajarilishi ko‘zda tutiladi:

yoshlarni “Yangi O’zbekiston – yangicha dunyoqarash!” g‘oyasi atrofida birlashtirish, ta’lim va tarbiya tizimi uzviyligini ta’minlash;

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazish;

oila, mahalla, ta’lim muassasalarini va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma’naviy muhitni o’rganish va sog‘lomlashtirishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etish;

“Jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasi asosida jamiyatda uzlucksiz ma’naviy-axloqiy tarbiya va targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo‘nalishlari, ta’sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyatga joriy etish;

aholi, ayniqsa talaba-yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy hayotida bunyodkorlik g‘oyalarini kuchaytirish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash;

respublika ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlar, bilim olayotgan yoshlarning ijodiy faolligi va siyosiy madaniyatini oshirish;

yoshlar ongiga O’zbekistonda milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari olib borilayotgan islohotlar mazmunini tushunish va uni qadrlash darajasini aniqlash;

mamlakatimizda intellektual mulkni aniqlash va ularning ijodiy faoliyatini har jihatdan qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

### **III. Ko‘rik-tanlovni tashkil etish va o‘tkazish**

7. Ko‘rik-tanlovning “Eng faol milliy g‘oya va ma’naviyat targ‘ibotchisi”, “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha eng yaxshi kafedra”, “Eng yaxshi tyutor” va “Eng faol xotin-qizlar maslahat kengashi raisi” nominatsiyalarida oliy ta’lim muassasalarining pedagog xodimlari, “Eng faol islohotlar targ‘ibotchisi” nominatsiyasida oliy ta’lim muassasasining talabalari ishtirok etishi mumkin.

8. Ko‘rik-tanlovda ishtirok etishni xohlovchilar 1-ilovaga muvofiq oliy ta’lim muassasalarining Yoshlar bilan ishslash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limiga

(xorijiy OTMlarda yoshlar bilan ishslash bo‘yicha mas’ullarga) arizalar bilan murojaat qilib, o‘zi haqidagi tegishli ma’lumotlarni taqdim etadi.

9. Arizalar **har yili 15-avgustdan 15-sentabrgacha** qabul qilinadi.

10. Ko‘rik-tanlov 2 (ikki) bosqichda bo‘ladi hamda uning adolatli o‘tishini ta’minlash maqsadida Hakamlar hay’ati tashkil etiladi.

Bular: Respublika bosqichi uchun – Tashkiliy qo‘mita;

Oliy ta’lim muassasasi bosqichi uchun – oliy ta’lim muassasasi mas’ul hisoblanadi.

Hakamlar haya’ti tarkibi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya va uning hududiy bo‘limlari, oliy ta’lim muassasasining pedagog xodimlari hamda boshqa tegishli mutaxassislardan tashkil topishi mumkin.

11. **Birinchi bosqich** – arizalar qabul qilish va saralash bosqichi bo‘lib, bunda ko‘rik-tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan nomzodlardan arizalar qabul qilinadi hamda ular **2 ta shart** bo‘yicha saralanadi.

**1-shart.** Nomzodlarning nominatsiya bo‘yicha amalga oshirgan ishlarining samaradorligi va natijadorligi tahlili (hujjatlar asosida) –**40 (qirq) ball**;

**2-shart.** Nomzodlarning ma’naviy, mafkuraviy siyosiy, huquqiy targ‘ibot sohasidagi faoliyati taqdimoti (5-7 daqiqa davomida proyektor ekran orqali) hamda sohaga doir savol-javob shaklida suhbat asosida –**60 (oltmish) ball**.

**2-shart** bo‘yicha jami **100 (yuz) ball** to‘planadi.

**1-shart har yili 20-sentabrdan 1-oktabr kuni** oralig‘ida o‘tkaziladi.

**2- shartlar har yili 1-oktabrdan 10-oktabr kuni** oralig‘ida o‘tkaziladi.

Nominatsiyalar bo‘yicha 2 ta shart natijalariga ko‘ra, eng yuqori ball to‘plagan g‘olib (nizomning 7-bandiga asosan) ko‘rik-tanlovning keyingi bosqichida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi.

12. Ko‘rik-tanlovning har bir nominatsiyasi bo‘yicha oliy ta’lim muassasasi bosqichida g‘olib deb topilgan ishtirokchilarning hujjatlari har yili 20-oktabrdan kechiktirmagan holda oliy ta’lim muassasasi tomonidan 2-ilovaga muvofiq Tashkiliy qo‘mitaga yuboriladi.

13. **Ikkinci bosqich** – Respublika bosqichi bo‘lib, har yili oktabr-noyabr oylari davomida 2 ta shart bo‘yicha o‘tkaziladi. Ushbu bosqich ishtirokchilari Tashkiliy qo‘mita tomonidan tashkil etilgan Hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi.

**1-shart.** Har yili 25-oktabrdan 5-noyabr kunlari oralig‘ida nomzodlarning hujjatlari saralanadi va yo‘nalishi bo‘yicha amalga oshirgan ishlari eng yuqori baholangan 15 nafargacha nomzod keyingi shartda ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi.

**2-shart.** Har yili 5-noyabr 15-noyabr kunlari oralig‘ida nomzodlar tanlagan nominatsiyasi bo‘yicha ma’naviy, mafkuraviy siyosiy, huquqiy targ‘ibot sohasidagi faoliyati amalga oshirgan ishlari haqida 5-7 daqiqa davomida taqdimoti (proyektor ekran orqali) hamda sohaga doir savollardan suhbat asosida o‘tkaziladi. Hakamlar hay’ati tomonidan 1-, 2-, 3-o‘rinlarga munosib nomzodlar aniqlanadi.

14. Belgilangan muddatdan kech taqdim etiladigan hujjatlar qabul qilinmaydi.

15. Mazkur tanlovda oldingi yillarda ishtirok etib, Respublika bosqichida 1-, 2-, 3-o‘rinlarni egallagan nomzodlar 2 yil davomida ishtirok etishiga yo‘l qo‘ymaydi.

16. Hakamlar hay’ati tomonidan ishtirokchilarga qo‘yilgan ballar teng bo‘lib qolganda, Hakamlar hay’ati raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

17. Ko‘rik-tanloving yakuniy natijalari Hakamlar hay’atining qarori bilan rasmiylashtiriladi.

#### **IV. Ko‘rik-tanlov shartlari va baholash mezonlari**

18. Ko‘rik-tanloving Oliy ta’lim muassasalarida birinchi bosqichining birinchi sharti, Nomzodlarning nominatsiya bo‘yicha amalga oshirgan ishlarining samaradorligi va natijadorligi tahlili (hujjatlar asosida), nomzodlar yo‘nalish bo‘yicha turli mavzularda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, viktorinalar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etganligi, shuningdek aholi, ayniqsa talaba-yoshlarni jismonan sog‘lom, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish borasida amalga oshirgan ishlari hamda natijalari to‘g‘risida aniq va asosli ma’lumotlar, shuningdek, talabalar turar joyi, ijarada va xususiy xonadonlarda yashovchi talabalar bilan olib borilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar hisobotlari, beshta muhim tashabbus doirasida amalga oshirilgan ishlar (**maksimal ball – 10 ball**);

Bular quyidagicha baholanadi:

| T/r  | Baholash mezoni   | Ball      |
|------|---|-----------|
| 1.   | <b>Nomzodning tanlagan nominatsiyasi yo‘nalishida yoshlar (tengdosh) bilan ishlash va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning o‘rtacha samaradorlik ko‘rsatkichi</b> | <b>10</b> |
| 1.1. | Ma’naviy-ma’rifiy ishlar sifati darajasi va yo‘nalishi bo‘yicha olib borilgan ishlar samaradorligi  | 3         |

|      |  |   |
|------|--|---|
| 1.2. | Talabalar turar joylarida yoshlarning dam olishi va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etilishi, shuningdek, ijara va yaqin qarindoshinikida yashovchi talaba-o'quvchilar bilan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar holati  | 2 |
| 1.3. | Korrupsianing oldini olishga qaratilgan ishlar natijadorligi hamda professor-o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan xabardorligi, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy sohalardagi bilim darajasi ko'rsatkichi hamda faoliyati yuzasidan OAV va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlari, ilmiy-ommabop maqolalari ("Axborot va tyutorlik soatlari" tahlili va boshqa hujjatlar) | 3 |
| 1.4. | Ta'lif muassasasida 5 ta muhim tashabbusning ijrosida nomzodning o'rni ( <i>Tashkil etgan klublari va qamrab olinganlar kontingenti (umumiy kontingentga nisbatan foizda)</i> ) hamda bu borada amalga oshirgan ishlar natijadorligi   | 2 |

Shuningdek, nomzodlarning oliy ta'lif muassasasidagi faoliyati davomida qo'lga kiritgan yutuqlari, jumladan, faxriy yorliqlar, sertifikatlar, diplom, tashakkurnomalari hamda ilmiy-ommabop jurnallardagi maqolalari, davlat mukofotlari va ko'krak nishoni bilan (so'nggi ikki yil davomida qo'lga kiritgan yutuqlari inobatga olinadi) taqdirlangan ishlar (**maksimal ball – 40 ball**).

Bular quyidagicha baholanadi:

| t/r | Yutuqning darajasi   | baholanishi    |            |
|-----|--|----------------|------------|
| 1.  | Ta'lif muassasasi yoki tuman (shahar) miqyosida (faxriy yorliq, sertifikat,diplom, tashakkurnoma)    | 2 ball         |            |
| 2.  | Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyat miqyosida (faxriy yorliq, sertifikat,diplom, tashakkurnoma) | 2 ball         |            |
| 3.  | Respublika miqyosida (faxriy yorliq, sertifikat,diplom, tashakkurnoma)                               | 2 ball         |            |
| 4.  | Xorijiy davlatlar miqyosida (faxriy yorliq, sertifikat,diplom, tashakkurnoma)                        | 3 ball         |            |
| 5.  | Ko'krak nishoni (1+)   | 4 ball         |            |
| 6.  | Davlat mukofoti (1+)   | 4 ball         |            |
| 7.  | Ilmiy-ommabop jurnallardagi maqolalar (mahalliy)   | (1-4)<br>2     | (5-8)<br>2 |
| 8.  | Ilmiy-ommabop jurnallardagi maqolalar (xalqaro)  | (1-4)<br>2     | (5-8)<br>2 |
| 9.  | Ilmiy-ommabop jurnallardagi maqolalar (xorijiy)  | (5-8)<br>2     | (5-8)<br>3 |
|     | <b>Jami ball</b>   | <b>30 ball</b> |            |

19. Ko‘rik-tanlovning respublika bosqichi 2 ta shart bo‘yicha o‘tkaziladi hamda Hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi.

**1-shart.** Nomzodlarning hujjatlari ushbu nizomning 18-bandiga muvofiq saralanadi va amalga oshirgan ishlari eng yuqori baholangan 15 nafargacha nomzod Respublika bosqichi 2-shartida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi.

**2 shart.** Nomzodlar tanlagen nominatsiyasi bo‘yicha ma’naviy, mafkuraviy siyosiy, huquqiy targ‘ibot sohasidagi faoliyati amalga oshirgan ishlari haqida taqdimoti (5-7 daqiqa davomida proyektor ekran orqali) namoyish etiladi. Sohaga doir savollardan suhbat asosida o‘tkaziladi, Hakamlar hay’ati tomonidan 1-, 2-, 3-o‘rinlarga munosib nomzodlar aniqlanadi.

Barcha shartlar bo‘yicha umumiylar qo‘shib hisoblanganda, eng yuqori ko‘rsatkichga erishgan ishtirokchilar o‘rtasida I, II va III o‘rinlarni taqsimlash Hakamlar hay’ati a’zolari tomonidan hal etiladi.

## **V. Ko‘rik-tanlov g‘oliblarini taqdirlash**

20. Ko‘rik-tanlovning oliy ta’lim muassasasi (birinchi) bosqichida yuqori 3 ta o‘rinni egallagan ishtirokchilar oliy ta’lim muassasalari tomonidan diplom va qimmatbaho sovg‘alar, shuningdek, tanlovda faol ishtirok etgan qatnashchilar uchun ta’lim muassasasi rahbarining faxriy yorliqlari bilan taqdirlanadi.

21. Ko‘rik-tanlovning respublika bosqichida g‘olib bo‘lgan ishtirokchilarni rag‘batlantirish Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan moliyalashtiriladi.

22. Ko‘rik-tanlov g‘olibi va sovrindorlari quyidagi tartibda pul mablag‘lari va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining diplomlari hamda statuetkalari bilan rag‘batlantiriladi:

| <b>t/r</b> | <b>Nominatsiya nomi</b>                                      | <b>Egallagan o‘rni</b> | <b>Diplom va statuetka</b>       | <b>Pul mukofotining miqdori</b>           |
|------------|--|------------------------|----------------------------------|---|
| <b>1.</b>  | “Yilning eng faol milliy g‘oya va ma’naviyat targ‘ibotchisi” | 1-o‘rin                | I darajali diplom va statuetka   | Bazaviy hisoblash miqdorining 45 baravari |
|            |  | 2-o‘rin                | II darajali diplom va statuetka  | Bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravari |
|            |  | 3-o‘rin                | III darajali diplom va statuetka | Bazaviy hisoblash miqdorining 35 baravari |
| <b>2.</b>  | “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha eng yaxshi kafedra”       | 1-o‘rin                | I darajali diplom va statuetka   | Bazaviy hisoblash miqdorining 45 baravari |
|            |  | 2-o‘rin                | II darajali diplom va statuetka  | Bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravari |

|    |   |         |                                  |   |
|----|---|---------|----------------------------------|---|
|    |   | 3-o‘rin | III darajali diplom va statuetka | Bazaviy hisoblash miqdorining 35 baravari |
| 3. | “Eng yaxshi tyutor”                             | 1-o‘rin | I darajali diplom va statuetka   | Bazaviy hisoblash miqdorining 45 baravari |
|    |   | 2-o‘rin | II darajali diplom va statuetka  | Bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravari |
|    |   | 3-o‘rin | III darajali diplom va statuetka | Bazaviy hisoblash miqdorining 35 baravari |
| 4. | “Eng faol xotin-qizlar maslahat kengashi raisi” | 1-o‘rin | I darajali diplom va statuetka   | Bazaviy hisoblash miqdorining 45 baravari |
|    |   | 2-o‘rin | II darajali diplom va statuetka  | Bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravari |
|    |   | 3-o‘rin | III darajali diplom va statuetka | Bazaviy hisoblash miqdorining 35 baravari |
| 5. | “Eng faol islohotlar targ‘ibotchisi”            | 1-o‘rin | I darajali diplom va statuetka   | Bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravari |
|    |   | 2-o‘rin | II darajali diplom va statuetka  | Bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravari |
|    |   | 3-o‘rin | III darajali diplom va statuetka | Bazaviy hisoblash miqdorining 10baravari  |

23. Ko‘rik-tanlovning respublika bosqichi qatnashchilariga “Islohotlar bilimdoni” keng tarmoqli respublika ilmiy-ma’rifiy ko‘rik-tanlovi ishtirokchisi sertifikati beriladi.

24. Ko‘rik-tanlovning respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlash jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq zarur sarf-xarajatlar uchun mablag‘ Tashkiliy qo‘mita tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblar asosida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan Vazirlik huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazining tegishli hisob raqamiga o‘tkazib beriladi hamda g‘oliblarni taqdirlash tadbiri yuqori saviyada tashkil etiladi.

## VI. Yakuniy qoidalar

25. Ko‘rik-tanlovning ishchi tili: Davlat tili.
26. Ko‘rik-tanlovga kelib tushgan hujjatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda 6 oy muddat davomida saqlanadi.
27. Ko‘rik-tanlovlar natijalari OAVda e’lon qilib boriladi.
28. Ko‘rik-tanlov ishtirokchisi (boshqa shaxs) tomonidan tanlovning yakuniy bosqichini tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek, uning natijasi bilan bog‘liq murojaat(e’tiroz)lar qabul qilinmaydi.

“Islohotlar bilimdoni” keng tarmoqli respublika ilmiy-ma’rifiy ko‘rik-tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga 1-ilova

**“Islohotlar bilimdoni” keng tarmoqli respublika  
ilmiy-ma’rifiy ko‘rik-tanlovi ishtirokchisi  
ARIZA ANKETASI**

F.I.SH \_\_\_\_\_

Nominatsiya nomi \_\_\_\_\_

Foto

Tug‘ilgan yili, oy va kuni \_\_\_\_\_

Millati \_\_\_\_\_

Lavozimi (to‘liq) \_\_\_\_\_

Pasport ma’lumoti (Seriysi va raqami) \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_

Kim tomondan va qachon berilgan \_\_\_\_\_

Talaba-shogirdining F.I.Sh (agar ishtirok etsa) \_\_\_\_\_

Tug‘ilgan yili, oy va kuni \_\_\_\_\_

Fakulteti (yo‘nalishi) va kursi \_\_\_\_\_

Pasport ma’lumoti (Seriysi va raqami) \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_

Kim tomondan va qachon berilgan \_\_\_\_\_

**imzo**

**sana**